

**XX ASR OXIRI - XXI ASR BOSHLARIDA GERMANIYADAGI SIYOSIY
PARTIYALARING TARAQQIYOTDA TUTGAN O'RNI.**

*Egamberdiyev Quvonchbek Nurgali o'g'li
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Germaniya siyosatida muhim o‘rin egallagan siyosiy partiyalar va ularning mamlakat hayotiga ta’siri haqida so‘z yuritilgan. Umumiy olganda ushbu maqola orqali Germaniyadagi parlament va partiyaviy tizimni dunyodagi eng demokratik tizim ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

KALIT SO‘ZLAR: GFR, SDP, Nemis sotsial uyushmasi, GDR, Gelmut Kol, “Germaniya uchun alyans” bloki, EDP, Gerxard Shryoder

Hozirgi Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) yalpi milliy mahsuloti miqdori bo'yicha Yevropada birinchi, jahonda uchinchi o'rinda turadi. YaMM miqdori - 1 trln 950 mlrd dollar; jon boshiga - 30150 dollar (2005-y.); yillik o'sish - 2,8 foiz (2008-y.). GFRga jahon yalpi milliy mahsuloti (YaMM) ning 7,8 foizi, YeI yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 28 foizi to'g'ri keladi. GFR jahon sanoat mahsulotining 6,8 foizini bermoqda.

1989-yil noyabrida Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) da yangi partiya – Sotsial-demokratik partiya (SDP) tashkil topdi. 1990-yil yanvarida o'z dasturiy asoslariga ko'ra, Bavariyadagi XSI ga juda yaqin bo'lган Nemis Sotsial Uyushmasi tuzildi. Tez orada NSU va XSI o'rtasida mustahkam aloqalar o'rnatildi. G'arbiy Germaniyadagi XDI esa, aksincha, o'zining Sharqiy Germaniyadagi sherigi bilan yaqinlashishga shoshilmadi. Faqat GDRda erkin saylovlар o'tkazish arafasida G. Kol Sharqiy Germaniya xristian demokratlarini qo'llab-quvvatlay boshladi. 1990-yil 18-martdagi saylovlар arafasida GDRda siyosiy kuchlarning birlashuvi ro'y berdi. 5-fevralda G. Kol taklifi bilan Sharqiy Germaniyadagi XDI, NSU va "Demokratik zarba" "Germaniya uchun alyans" blokiga birlashdi. Bu koalitsiya amalda GFR rahbariyati tomonidan rasman qo'llab-quvvatlandi va ikkala Germaniyani birlashtirish bo'yicha yanada aniq dastur ishlab chiqildi. 1990-yil 18-martdagi saylovlар kutilgan natija berdi. XDI - 40,9%, OSS - 6,32%, "Demokratik zarba" 0,92% (shunday qilib, "Germaniya alyansi" - 48,14%) ovozga ega bo'ldi. Germaniyani birlashtirishning xalqaro huquqiy yechimi "2 + 4" shaklidagi AQSh, SSSR, Buyuk Britaniya, Fransiya muzokaralarida o'z yechimini topishi kerak edi. Bu muzokaralar 1990-yil mayida boshlandi. Buyuk Britaniya va Fransiya rahbarlarining shoshilmasliklariga qaramay, bu muzokaralar ishtirokchilari nemis xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini tan olishdi. Bunda SSSR Prezidenti M.Gorbachyovning Birlashgan Germaniya rahbariyatiga mamlakatning harbiy va iqtisodiy bloklarga kirish masalasini o'z

ixtiyoriga berish va GDRdan sovet qo'shinlarini olib chiqib ketish to'g'risidagi qarori muhim rol o'ynadi. Umuman, M.Gorbachev GDRning GFRga qo'shilishiga rozi ekanligini G. Kolga 1990-yilning 10-fevralidayoq ma'lum qilgan edi. 1990-yil 12-sentyabrda "2 + 4" ishtirokchilari tomonidan "Germaniya masalasini uzil-kesil hal etish to'grisida"gi shartnoma imzolandi. Shartnomada Germaniyaning urushdan keyingi chegaralari daxlsizligi, GFRning ommaviy qirg'in quroliga ega bo'lmasligi yoki ishlab chiqarishi mumkin emasligi qat'iy belgilangan edi. Shartnomaga ko'ra, Germaniya o'z qurolli kuchlarini kerakli darajada qisqartirishi kerak edi. Sharqiy Germaniyada sovet qo'shinlarining 1994-yilgacha bo'lishi va ularni chiqarish tartibi ham kelishib olindi. 22-avgustda GDR Xalq palatasi GFRning saylov tartibi asosida Umumgermaniya saylovlarini o'tkazish to'grisida qonun qabul qildi. GDRni GFRga qo'shish to'g'risidagi qaror asosiy qonunning 23- moddasiga muvofiq qabul qilindi. Bu esa GDRda davlatchilik barham topganini va uning hududida G'arbiy Germaniya qonunchiligi joriy etilganligini bildirardi. Bu voqeа 1990-yil 3-oktabrda amalga oshirildi. 4-avgustda Bundestag Xalq palatasining GDRni GFRga qo'shish to'grisidagi qarorini qo'llab-quvvatladi va Umumgermaniya saylovlarini 1990-yil 2-dekabrga belgiladi. Bu qarorlar 31-avgustda imzolangan va 1990-yil 3-oktyabrda kuchga kirgan "Germaniyaning birlashishi to'g'risida"gi shartnomada o'z aksini topdi. Oktyabrning o'rtalarida Sharqiy Germaniyadagi ma'muriy tizim G'arbiy Germaniyadagi ma'muriy boshqaruv tizimi bilan birlashtirildi. Okruglar o'rniга ilgarigidek beshta hudud hududiy birligi saqlandi. "Hudud" landtaglariga (mahalliy parlament) saylovlar 14-oktyabrda bo'lib o'tdi Brandenburgda sotsial-demokratlar, qolgan to'rtta hududda xristian demokratlarning qo'li baland keldi. 2-dekabrda Butun Germaniya hududida Bundestag saylovlari o'tkazildi. Bu saylovlar hukmron koalitsiyalarning ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. XDI - 36,7% ovoz va 268 mandat, XSI - 7,1 % ovoz va 51 mandat, EDP 11% ovoz va 79 mandatga ega bo'ldi. 33,5% ovoz va 239 mandatga ega bo'lgan GSDP o'z mavqeyelini ancha mustahkamlab oldi. Bundestagning 1990-yil 20-dekabrdagi Ta'sis majlisida Kansler G. Kol boshchiligidagi birinchi Umumgermaniya hukumati tuzildi.

Germaniyada 90-yillarning birinchi yarmida siyosiy vaziyat barqaror edi. Kuzda ro'y bergen mamlakatning birlashish jarayoni uning tashkilotchisi xristian-demokratlar ustunligini mustahkamlashga xizmat qildi. Bu 1994-yili G.Kol partiyasiga navbatdagi g'alabani olib keldi. May oyida mamlakat Prezidenti etib XDI vakili, 1987-yildan GFR Konstitusion sudi raisi vazifasida ishlab kelayotgan 60 yoshli huquqshunos R. Xersog saylandi. 1994-yil kuzida Bundestagga navbatdagi saylovlar bo'lib o'tdi. Muxolifat o'z mavqeyini ancha mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. GSDP 36,4% ovoz va 252 mandatga ega bo'ldi. Shunga qaramasdan, hukumat koalitsiyasi parlamentda ko'pchilikni tashkil etdi. XDI 34,2% ovozga (244 mandat), XSI 7,3% ovozga (50 mandatga) ega bo'ldi. Qiyin iqtisodiy ahvolni hisobga olganda,

bu yutuq G. Kolning katta shaxsiy muvaffaqiyati edi. G.Kolning Germaniyani birlashtirishdagi xizmatlarini nemis xalqining qadrlashi deb e'tirof etildi. Navbatdagi, 1998-yilgi Bundestag saylovlari gacha o'tgan to'rt yil mobaynida xristian - demokratlar na o'z obro'larini oshirishga va na dasturlarini yangilashga muvaffaq bo'lishdi. Faqat 1998-yil davomida iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi saylov kompaniyasining omadli bo'lishiga umid tug'dirardi, xolos. YaIMning o'sishi dastlabki 8 oy ichida 2,2% ni tashkil etdi. 1998-yil saylovlari arafasida sotsial-demokratlarning obro'si oshganligi ko'rinish turardi.

1998-yil saylovlari sotsial-demokratlarga uzoq kutilgan g'alabani hadya etdi. GSDP 40,8% ovoz va 298 mandatga ega bo'ldi. Parlament saylovlarida g'alaba qilish uchun "alvon-yashil" koalitsiya tashkil qilindi. 67% ovoz va 47 mandatga ega bo'lgan "Ittifoq-90" yashillar" bloki uning a'zosi bo'ldi. Birinchi marta DSP 5% li to'siqni oshib o'tdi (5,1% va 35 mandat). XDI/XSI bloki 35,3% ovozga (245 mandatga), EDP esa 6,2% ovoz (44 mandatga) ega bo'ldi. Gerxard Shryoder Germanyaning yangi kansleri bo'ldi. G.Shryoder hukumatida tashqi ishlar vaziri "Ittifoq-90" yashillar" bloki yetakchisi Yoshka Fisher bo'ldi. 1999-yil may oyida sotsial-demokratlar muvaffaqiyatli ravishda Prezident saylovlarini o'tkazdi. Bu lavozimni Yoxannes Rou egalladi.

Ichki siyosatda Shryoder "neokonservativ to'lqin" pozisiyasida turgan yangi siyosatchilar Bleyer va Jospen tajribasidan foydalandi. Ustuvor yo'nalishlar: kompaniyalar soliqlarini kamaytirish, mehnat bozori egiluvchanligini ta'minlash va ish kuni davomiyligini o'zgartirish, mehnatga haq to'lash uchun chegirmalarni qisqartirish, iqtisodiyotdagi ijtimoiy sektorni yangilashdan iborat bo'ldi. Ijtimoiy bozor, iqtisodiyoti tizimini tubdan qayta tuzish amalga oshirilmadi, ammo iqtisodiy o'sish davridagi maqbul siyosat juda samarali bo'lib chiqdi. Davlat xarajatlarini tejashga, asosan, hududlar byudjetlari hisobidan erishildi. 1999-yilda hukumat ta'lim sohasini keng miqyosda isloh qilish qarorini ma'lum qilib, bu sohaga bo'lgan xarajatlardan oqilona foydalanish, ratsionalallashtirish va uning samaradorligini oshirishga harakat qildi. Istiqbolli ilmiy-texnik tadqiqotlar uchun qo'shimcha mablag'lar ajratila boshlandi.

Tashqi siyosatga ham G.Shryoder katta tuzatishlar kiritdi. 1999-yilda Germaniya YeIning raisi bo'lishiga qaramasdan, valyuta ittifoqini shakllantirishga qaratilgan Umumyevropa dasturlari loyihalarini ma'qullashga shoshilmadi. Germaniya integratsion jarayonga qatnashishga tayyor ekanligini namoyish etdi, ammo boshqa mamlakatlar uchun mablag' to'lashdan bosh tortdi. 1999-2000 yillarda Germaniya NATO tarkibida faolroq bo'ldi. G.Shryoder Kosovadagi mojaroga nisbatan o'ta murosasiz yo'l tutdi. Rossiya bilan o'zaro munosabatlarda esa sovuqlik davri boshlandi. Oxirgi parlament saylovlari vaqtida Rossiya Prezidenti B.Yelsin tomonidan G.Kolning ochiqchasiga qo'llab-quvvatlanishi Moskvaning yangi

hukumat bilan yaqinlashishiga to'sqinlik qildi. 2000-yilda shu yo'nalishda Germaniya diplomatiyasi Rossiyaning tashqi qarzlar masalasida yetarlicha murosasiz yo'l tutdi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Белова В.Б. Германия. Вызовы XXI века М.” Весь Мир”. 2009 год
2. Бонвеча Б, Галактионова Ю.В. История Германии. Том 3. Документы и материалы. М.2008 год
3. Ватлин А. Ю. Германии в XX веке М. Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН) 2002 год
4. Берлин П.А. Политические партии на Западе. Их доктрины, организатсия и деятельность . СПб. 1998 год.
5. Internet ma'lumotlari.